Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan	1092
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
Qosimova Nodira Saidovna	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar.....	1102
Azizova Maliha Farrux qizi	



Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана	1106
Максудова Шахзода	
Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий	1112
Олимова Бахора Шухратовна	
Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri	1116
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning ta'siri	1121
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li	
Роль управления производством в условиях модернизации экономики	1125
Гулов Мухтор Очилович	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	1129
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
Роль цифрового маркетинга в продвижении туристических направлений	1136
Муродова Наргиза Уткировна	
Развитие финансовых рынков в странах снг: проблемы и перспективы	1140
Рузиев Зафар Икрамович, Каримов Ислон Ураз угли	
Современные инструменты продвижения бренда в условиях цифровой экономики	1145
Темирова Феруза Сагдуллаевна	
"Raqamli asrda axborot xavfsizligi: it texnologiyalar bilan xavfsizlikni ta'minlash yo'llari"	1149
Sherzod Rajabov	
Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования	1152
Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович	
Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems	1157
Mubina Toirova	
Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках	1162
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar	1167
A'zam Qutbiddin A'zam-zoda	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari	1173
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida	1179
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari	1186
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari	1200
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili	1204
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish	1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1219
Ruziyev G'anisher Usarovich	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida)	1225
Xoshimova Sevara Baxromovna	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari	1229
Kuldoshev Asliddin Tursunovich	
Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана	1236
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili	1240
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan	1245
Ismatova Mahliyo	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
Akmal Bakhromov	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
Abdurakhimova Dilora Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnura Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar.....	1314
Khusniddin Egamnazarov	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlar.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	



Improvement of inventory accounting audit based on international standards	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ldiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybachin Olim qizi	
Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherhali Nuraliyevich	



O'ZBEKISTONDA FOND BOZORINI TARTIBGA SOLISH

**Sultonov Sherali Nuraliyevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrası dotsenti, (PhD)

sherali.sultonov1978@gmail.com

ORCID: 0000-0002-6018-648X

Tel: +99890-968-47-76

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish tizimi, uning huquqiy asoslari va amaldagi institutlar faoliyati tahlil qilinadi. Fond bozorining barqaror rivojlanishi uchun tartibga soluvchi mexanizmlarning muvofiqligi va ularning xalqaro standartlarga yaqinlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi va boshqa vakolatli organlarning roli, shuningdek, investorlarni himoyalashga doir chora-tadbirlar muhokama qilinadi. Xulosa sifatida, fond bozorini yanada liberallashtirish va raqamli nazorat vositalarini joriy qilish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: fond bozori, qimmatli qog'ozlar, aksiyalar emissiyasi, bozor kapitalizatsiyasi, aksiyadorlik jamiyatlari, fond birjasi, korporativ obligatsiyalar, investitsiyalar.

Abstract: This article examines the regulatory framework of the stock market in Uzbekistan, focusing on the legal foundations and the functioning of authorized institutions. Ensuring alignment with international standards is essential for the stable development of the securities market. The study analyzes the role of the Capital Market Development Agency, the evolution of legal norms, and measures taken to protect investors. The article concludes with proposals for further liberalization and the implementation of digital regulatory tools in market oversight.

Key words: stock market, securities, share issue, market capitalization, joint-stock companies, stock exchange, corporate bonds, investments.

Аннотация: В статье рассматривается система регулирования фондового рынка в Узбекистане, включая правовые основы и деятельность уполномоченных институтов. Подчеркивается значимость гармонизации регулирования с международными стандартами для устойчивого развития рынка ценных бумаг. Проанализированы функции Агентства по развитию капитального рынка, роль нормативно-правовых актов и меры по защите инвесторов. В заключение даны рекомендации по дальнейшей либерализации рынка и внедрению цифровых механизмов регулирования.

Ключевые слова: фондовый рынок, ценные бумаги, эмиссия акций, капитализация рынка, акционерные общества, фондовая биржа, корпоративные облигации, инвестиции.

KIRISH

Bugungi global iqtisodiy muhitda fond bozorlari jahon mamlakatlarida turli rivojlanish bosqichlarida bo'lsa-da, ular makroiqtisodiy rejalashtirish jarayonlari va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda strategik moliyaviy vosita sifatida muhim rol o'ynamoqda. Xususan, xorijiy kapital oqimlarini jalb etish hamda aholi jamg'armalarini iqtisodiyotning real tarmoqlariga yo'naltirishda fond bozorining imkoniyatlaridan keng



foydalanilmoqda. Fond bozorlari orqali kapital oqimlarini muvozanatlash, investitsion resurslarni samarasiz sohalardan yuqori samaradorlikka ega yo'nalishlarga yo'naltirish imkoniyati shakllanmoqda.

O'zbekiston sharoitida strategik rivojlanish maqsadlari va jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar fonida fond bozorining milliy iqtisodiyotdagi funksional ahamiyatini oshirish alohida ustuvorlikka ega. Bu yo'nalishda birja savdolariga keng jamoatchilikni jalb etish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va qimmatli qog'ozlar bilan savdo madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozorining birlamchi va ikkilamchi segmentlarini izchil rivojlantirish, fond birjasida aksiyalar qiymatini ochiq va muntazam e'lon qilib borish orqali investorlarning ishonchini mustahkamlash mumkin.

Aholining aksiyalarga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish, ularni real moliyaviy aktiv sifatida shakllantirish hamda ularni barqaror daromad manbaiga aylantirish bozor infratuzilmasining pishiq ishlashi va institutsional muhitning yetukligiga bevosita bog'liq. Mazkur yondashuv O'zbekiston fond bozorining raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asosiy tarkibiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning barqarorligi va raqobatbardoshligi, birinchi navbatda, uning investitsion faoliyatni qay darajada samarali tashkil etganiga bog'liqdir. Investitsion faollik darajasi esa subyektning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, o'sish imkoniyatlarini kengaytirish hamda bozor sharoitida moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish qobiliyatiga xizmat qiladi. Shu sababli, fond bozori infratuzilmasini kuchaytirish nafaqat makroiqtisodiy rivojlanish, balki har bir subyektning iqtisodiy sog'lomlashuvi uchun ham zaruriy shartdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fond bozori amal qilishining nazariy va amaliy masalalari bo'yicha qator xorijiy hamda milliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlanmalari o'rganildi. Jumladan, fond bozori ishtirokchilarining tasnifi B.I. Alyoxinning [1] o'quv adabiyotlari asosida tahlil qilindi. Fond bozorida moliyaviy vositalar yordamida resurslar harakatiga ta'sir etuvchi omillar Sh.Sh. Shoxa'zamiyning [2] ishlanmalari asosida, fond bozorida vositachilar faoliyati esa I.L. Butikovning [3] ilmiy ishlari asosida yoritildi.

Shuningdek, tijorat banklarining fond bozorlari rivojiga ijobiy ta'siri va ularning ushbu bozordagi ishtirokini faollashtirish uchun banklar mustaqilligini oshirish zarurligi masalalari R. Xojimatovning [4] tadqiqotlarida aks etgan. Xalqaro kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari hamda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining industrial davlatlar iqtisodiyotiga kuchli bog'liqligi borasidagi xulosalar Ch. Qulmatov va N. To'ychiyevlarning [5] fikrlari asosida o'rganildi.

Bundan tashqari, N.I. Berzon va E.A. Buyanovlarning [6] kapital bozorini ishlab chiqarish omillari umumiy bozorining ajralmas qismi sifatida baholagan fikrlari, G.N. Beloglazovanning [7] kapital bozorini moliya bozori segmenti sifatida ko'rsatgan qarashlari ham tahlil qilindi. Ya. Mirkin [8] va N.I. Berzonning [9] fond bozori hamda qimmatli qog'ozlar bozori tushunchalariga bergan ta'rif va izohlari asosida tegishli ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish, uning barqarorligini ta'minlash va takomillashtirish bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, moliya bozorining, xususan fond bozori indikatorlarining tarkibini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda iqtisodiy jihatdan taqqoslashda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya hamda deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsion faoliyatning samarali tashkil etilishi, eng avvalo, iqtisodiy subyektlarning fond bozorida faol ishtirok etishini talab etadi. Subyektlarning ushbu bozor segmentidagi ishtiroki esa, o'z navbatida, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish darajasi va mavjud infratuzilmasi bilan bevosita bog'liqdir. Aynan shuning uchun O'zbekiston sharoitida fond bozorini rivojlantirishga doir har qanday qaror va strategik yondashuvni ishlab chiqishda, eng avvalo, mavjud holatga kompleks baho berish, xos tendensiyalarni aniqlash va ularni chuqur tahlil qilish zaruriy shart hisoblanadi. Bunday yondashuvsiz fond bozorini isloh qilishga qaratilgan tashabbuslar yetarlicha asoslanmagan bo'lib qoladi.

Milliy fond bozorining holatini baholash va undagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash jarayonida quyidagi asosiy ko'rsatkichlar ketma-ketlikda tahlil etilishi lozim:

mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YalM) hajmi va "Toshkent" Respublika fond birjasi (RFB) savdo hajmining nisbatini aniqlash;

fond birjasida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida tuzilgan bitimlar soni;



aksiyadorlik jamiyatlari soni va ular tomonidan amalga oshirilgan aksiyalar emissiyasi hajmidagi o'zgarishlar; YaIM, aksiyalar umumiy emissiyasi va birja aylanmasining dinamikasi asosida solishtirma ko'rsatkichlar tahlili;


aksiyalar umumiy hajmidagi davlat ulushi tarkibi va uning yillik o'zgarish tendensiyasi;

chiqarilgan korporativ obligatsiyalar hajmi;

fond birjasida tuzilgan bitimlarning umumiy soni va hajmi.

Tahlillarga ko'ra, 2015–2022-yillar davomida O'zbekiston fond bozorida miqdoriy hamda sifat jihatidan sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan. Shu davr ichida fond bozorining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 1 foiz darajasiga ham yetmagan bo'lsa-da, ma'lum ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Jumladan, 2015-yilda ushbu ko'rsatkich atigi 0,09 % bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 7,8 martaga oshgan. Biroq bu ko'rsatkichning 1 foizdan past darajada saqlanib qolayotgani fond bozorining milliy iqtisodiyotdagi real ta'sir kuchi hali ham cheklanganligini ko'rsatmoqda.

Shunga qaramay, 2022-yilga kelib fond bozorining YaIMdagi ulushi 2015-yilga nisbatan 0,45 foiz punktiga oshib, 0,54 % ga yetgan. Bu esa o'sish borligini anglatadi, lekin u barqaror va chuqur ildiz otgan rivojlanishning belgisi emas. Shu davrda, ya'ni 2015–2022-yillar oralig'ida fond birjasi savdo hajmining umumiy o'sishi 29,9 martani tashkil qilgani e'tiborga molik bo'lib, infratuzilma va ishtirokchilarning faollashuvi borasida muayyan siljishlar sodir bo'lganini tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. YaIM va "Toshkent" RFB savdo hajmi [9]

2017–2019-yillar davomida O'zbekiston fond bozorida savdo hajmining pasayish tendensiyasi kuzatilgan bo'lib, bu davr fond birjasi faoliyatida nisbiy sustlashuv bilan xarakterlanadi. Ammo qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishga qaratilgan institutsional va normativ-huquqiy islohotlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida 2021-yildan boshlab mazkur sohada ijobiy siljishlar yuzaga kela boshladi. Aynan shu yildan boshlab fond birjasi savdo aylanmasida barqaror o'sish dinamikasi qayd etilmoqda.


"Toshkent" Respublika fond birjasi O'zbekistonning qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasida asosiy savdo maydoni sifatida faoliyat yuritadi. 2021–2022-yillar davomida mazkur birja o'zining faoliyati tarixida eng yuqori savdo hajmlarini qayd etdi. Jumladan, 2022-yilda savdo aylanmasi 4816,2 milliard so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2015-yilga nisbatan 29,9 barobar ko'p bo'lib, fond bozorining faollashuvi va kapitallashuv jarayonlarining jadallashuvini ifodalaydi.

Shuningdek, 2015–2021-yillar oralig'ida fond birjasi savdo hajmi 7,8 barobar ortgani kuzatilgan. Bu o'sish nafaqat investorlar faolligining oshgani, balki birja infratuzilmasining texnologik modernizatsiyasi, axborot shaffofligi, bitimlar tuzish jarayonining soddalashtirilishi, hamda qimmatli qog'ozlar bozoriga xizmat



ko'rsatuvchi institutlarning takomillashuvi bilan ham izohlanadi. Yana bir muhim jihat – fond bozorini tartibga soluvchi qonunchilik asoslari va nazorat mexanizmlarining bosqichma-bosqich takomillashib borayotgani bozor ishtirokchilarining huquqiy ishonchini mustahkamlab, umumiy faollikni oshirmoqda. Bu holat sohadagi rivojlanish tendensiyasining ijobiy yo'nalishda ekanligidan dalolat beradi.

2020–2022-yillar oralig'ida fond birjasida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida tuzilgan bitimlar soni tahlil qilinganda, moliyaviy sektor qimmatli qog'ozlari nisbatan yuqori investitsion jozibadorlikka ega bo'lib turgani aniqlanadi. Bu esa banklar va moliyaviy institutlar tomonidan chiqarilayotgan aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabning barqarorligini, shuningdek, bu sektor fond bozorida yetakchi pozitsiyaga ega ekanligini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. 2020-2022-yillarda fond birjasida iqtisodiyot sohalari bo'yicha tuzilgan bitimlar soni (dona)[11]

2022-yil yakunlariga ko'ra, fond birjasida eng ko'p tuzilgan bitimlar bank va sanoat sohalari emitentlarining qimmatli qog'ozlariga to'g'ri keldi. Jumladan, bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan 26 042 ta bitim amalga oshirilib, bu birja bitimlari umumiy sonining 32,26 foizini tashkil etdi. Sanoat tarmog'idagi 9 ta emitent aksiyalari bilan esa 21 247 ta bitim tuzilgan bo'lib, bu ko'rsatkich jami bitimlarning 26,32 foizini tashkil etdi.

Birja operatsiyalari hajmi bo'yicha ham bank sektori yetakchilik qilgan – 2022-yilda ushbu tarmoq bo'yicha tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 2,31 trillion so'mni tashkil etib, birja hajmining 47,94 foizini egallagan. Qurilish sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan esa 1,92 trillion so'mlik bitimlar amalga oshirilgan bo'lib, bu umumiy savdo hajmining 39,96 foiziga tengdir.

Agrosanoat tarmog'i va boshqa tarmoqlardagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimlar hajmi mos ravishda 237,93 milliard so'm va 169,31 milliard so'mni tashkil etdi. Eng past faollik esa aloqa va transport sohaslarida kuzatilib, ushbu segmentlardagi bitimlar hajmi atigi 69,29 million so'm va 18,09 million so'm darajasida bo'lgan.

2021-yil ko'rsatkichlariga nazar solsak, xuddi shu ikki soha – bank va qurilish sektorlari fond bozorida eng faol ishtirokchilardan bo'lgan. Bank sektori emitentlari bilan 23 421 ta bitim tuzilgan bo'lib, bu jami bitimlarning 32,76 foizini tashkil etgan. Qurilish sohasida faoliyat yurituvchi 6 ta emitent qimmatli qog'ozlari bilan 20 660 ta bitim amalga oshirilgan va bu birja bitimlari umumiy sonining 28,9 foizini tashkil qilgan. Qurilish sektori



emitentlarining savdo hajmi 641,2 milliard so'mni tashkil etib, umumiy birja hajmining 50,86 foizini egallagan.

Shu bilan birga, bank sektoridagi qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlar hajmi 312,6 milliard so'mga yetib, bu ko'rsatkich jami savdo hajmining 24,8 foizini tashkil qilgan. Energetika va sanoat sohalarida esa mos ravishda 98,9 milliard so'm va 95,1 milliard so'mlik bitimlar amalga oshirilgan. Eng past hajmli bitimlar esa aloqa va transport sohalariga to'g'ri kelib, ular mos ravishda 324,6 million so'm va 28,06 million so'mni tashkil qilgan.

Alohida ta'kidlash joizki, 2022-yilda bank sektori emitentlari bilan amalga oshirilgan bitimlar hajmi 2020–2021-yillardagi ko'rsatkichlarga nisbatan 48,8 foizga ortgan. Ushbu dinamik o'sish banklarning fond bozoridagi strategik mavqeini yaqqol namoyon qilib, tijorat banklari ushbu segmentda yetakchi ishtirokchilardan biri ekanini tasdiqlaydi. Ularning faol ishtiroki nafaqat fond bozori likvidligini ta'minlash, balki umumiy investitsiyaviy faollikni oshirishga ham xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi bosqichda amalga oshirilayotgan jadallashgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar fonida O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining, xususan, ikkilamchi segmentini to'laonli ishga tushirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Aksiyalar narxlarini fond birjasida ochiq va muntazam e'lon qilish, aholining ushbu moliyaviy vositalarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularni ishonchli daromad manbaiga aylantirish istiqbollari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mavjud infratuzilmalarni takomillashtirish orqali fond bozori mexanizmlarining funktsionalligi oshirilishi, bozor ishtirokchilarining faol qatnashuvi esa yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin.

Shu sababli, fond bozorini kompleks rivojlantirish, uni tartibga solish mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish, institutsional asoslarni kuchaytirish va investorlar manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish muhim strategik yo'nalishlardan biriga aylangan. Jumladan, axborot shaffofligini ta'minlaydigan fond indekslarini zamonaviylashtirish, birjalar va muqobil savdo platformalarining salohiyatini kengaytirish, yangi moliyaviy instrumentlarni amaliyotga tatbiq etish, o'z-o'zini boshqaruvchi institutlar faoliyatini shakllantirish va elektron savdo imkoniyatlarini keng ko'lamda rivojlantirish orqali fond bozori sifat jihatidan yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishi mumkin.

Ushbu chora-tadbirlar fond bozorining ichki jozibadorligini oshiradi, xorijiy investorlar uchun barqaror moliyaviy muhitni ta'minlaydi va kapital bozorlari orqali uzoq muddatli resurslarni iqtisodiyotga samarali yo'naltirish imkonini beradi. Bugungi kunda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bo'yicha birlamchi va ikkilamchi bozorlarda amalga oshiriladigan barcha operatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan zarur infratuzilma shakllangan. Endilikda ustuvor vazifa – mavjud infratuzilmaning samaradorligini oshirish, aholining moliyaviy savodxonligini rivojlantirish va fuqarolarni kapital bozorlarida faol ishtirok etishga jalb qilishdan iborat.

Fond bozori infratuzilmasining makroiqtisodiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish orqali uni davlatning investitsion siyosati va moliyaviy strategiyasi bilan uyg'unlashtirishga erishish mumkin. Ayniqsa, bo'sh turgan resurslarni uzoq muddatli investitsiyalarga yo'naltirish, fond bozorining likvidlik ta'minlovchi vosita sifatida faol ishlatilishini ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, fond bozori infratuzilmasini izchil va tizimli ravishda takomillashtirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuvlar O'zbekiston iqtisodiyoti barqarorligi va investitsion salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim strategik ustuvorliklardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алехин, Б. И. Рынок ценных бумаг: учебник и практикум для вузов / Б.И. Алехин. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2023. – 497 с.
2. Шохазамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга 1. Учебник.-Т.: Iqtisod-moliya, 2005.-с.13, 31-34.
3. Бутиков И.Л. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане. БФА.: Диссертация на соискание ученой степени доктор экономического наук. Тошкент.: 2009.г. 416 стр.
4. Xojimatov R.X. Fond bozorini rivojlantirish xususiyatlari va istiqbolli bank vositalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019-yil.
5. Qulmatov Ch., To'ychiyev N. Xalqaro kapital bozori rivojlanishining tendentsiyalari. Экономика. Научно-аналитический электронный журнал. Выпуск № 2. Июль 2022 года. e-journal.uz
6. Берзон Н.И., Буянов Е.А. Рынок капитала. – М.: «VITI-PRESS», 2006. С. 28.
7. Белоглазова Г.Н. Деньги, кредит, банки. – М.: Высшее образование. 2009. – С. 392.
8. Миркин Я.М. Ценные бумаги и фондовый рынок. – М.: Перспектива, 1995. – С. 100.
9. Берзон Н.И. и др. Фондовый рынок. 2-е изд. – М.: Вита-пресс, 1999. – С. 8.
10. "Toshkent" RFBning 2015-2022-yillardagi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
11. "Toshkent" RFBning 2020-2022-yildagi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr. <http://www.uza.uz>
13. Sultonov, Sherali, ET AL. "DEVELOPMENT WAYS OF STOCK MARKET IN UZBEKISTAN (IN THE CASE OF



- “TASHKENT” REPUBLICAN STOCK EXCHANGE).” JOURNAL OF CRITICAL REVIEWS 7.11 (2020): 1476-1482.
14. Sherali Sultonov. Directions of state regulation of the stock market. EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues - Peer Reviewed Journal. Volume: 9 | Issue: 2 | February 2021 | Journal DOI : 10.36713/epra0713 | SJIF Impact Factor (2021): 8.047
 15. Sherali Sultonov Nuraliyevich, & Nodira Soatova Bobokhanovna. (2022). Ways of Fund Market Development in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald, 7, Page 13–21.
 16. Sultonov, Sherali, ET AL. “Development ways of stock market in Uzbekistan (in the case of “TASHKENT” republican stock exchange).” Journal of Critical Reviews 7.11 (2020): 1476-1482.
 17. Sherali Sultonov. Directions of state regulation of the stock market. EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues - Peer Reviewed Journal. Volume: 9 | Issue: 2 | February 2021 | Journal DOI : 10.36713/epra0713 | SJIF Impact Factor (2021): 8.047
 18. Sultonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son. 184-191-бетлар.
 19. Чинқулов Қ.Р. Акциядорлик жамиятларини корпоратив қимматли қоғозлар орқали молиялаштиришни такомиллаштириш. Иқт. фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс. автореф. – Т., 2019.
 20. Чинқулов К. ПРОБЛЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН // Журнал Инноватсии в Экономике. – 2022. – Т. 5. – №. 5.
 21. Chinkulov, Kakhramon. “Functions of joint stock companies in the economy and improvement of their financing.” Journal of Innovations in Economy 4.8 (2021): 26-34.
 22. Чинқулов, Қ. «Республикамізда ilk IPO ҳамда SPO: ютуқлар ва муаммолар.» Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали 5 (2019).
 23. Chinqulov, Q. “Respublikamizda ilk IPO hamda SPO: yutuqlar va muammolar.” Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali 5 (2019).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>